

O'ZBEK ESTRADA SAN'ATI RIVOJIDA
MUHAMMAD YUSUF SHE'RIYATINING O'RNI

Jasmina Mahammadjonova

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"O'zbek maqom tarixi va nazariyasi" kafedrasi

"Musiqashunoslik" ta'lif yo'nalishi II bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xumoyun Xaydarov

Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti

"O'zbek maqom tarixi va nazariyasi" kafedrasi mudiri v.b.

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'z va ohangning uyg'unligi, estrada san'atining O'zbekistonga kirib kelishi, tarixiy bosqichlari, hamda ushbu jarayonda xalqimiz qalbidan o'zining unitilmas she'rlari bilan o'rinn olgan shoir Muhammad Yusuf ijoding o'zbek estrada san'atidagi o'rni xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy, estrada, aranjirofka, she'r, so'z, ohang, maqom, g'azal, san'at, kuy, pop, rok, rep.

"Ohang – bu harakatdagi tuyg'u, so'z esa, fikrning belgisi. Musiqa ana shu ikkisining uyg'unligidan tug'iladi"

B.V.Asafyev

She'r, kuy alohida mustaqil rivojlangan ijod turi. Ashula va qo'shiqda ushbu ijod mahsuli birlashib uyg'un ifoda vositasiga aylanadi. Bizga ma'lumki musiqa san'ati ikki asosiy yo'nalish: cholg'u va vokal qismlariga bo'linadi. Vokal musiqa rivoji uchun mavzuga mos qiyosiy she'r yoki g'azalga mos ravishda tanlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

"Kuy, ohang - inson ruhidagi ilohiy kayfiyat ifodasi. Musiqiy asarning g'oyasi, tasavvuri dastlab xayolda, so'ngra ijro tufayli sadolanish yo'li bilan jonlanadi, muayyan kuy shakliga aylanadi. Ohang sadosining umri juda qisqa: paydo bo'lishi bilanoq bir zumda nazardan qochadi, g'oyib bo'ladi. Birlamchi zarb va ohang zarrachalaridan butun boshli kuy paydo bo'ladi. Demak, musiqa shunchaki tovushlar emas, aksincha, parda va usullarning muvofiqlashtirilgan tizimidir. Eng muhimi, kuy-bu yoqimli tovushlar vositasida ifodalangan ma'no. Ma'nosiz tovush esa shovqin-surondan bo'lak narsa emas.[6. 14-15].

Tabiiyki, so'z va ohang uyg'unligi - bu she'r matnining va musiqa ohangining bir-birini to'ldirishidir. Musiqa san'atida bu uyg'unlik juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek musiqa merosiga kiruvchi mumtoz maqom, milliy estrada, ashula va baxshichilik san'atida so'z va ohang uyg'unligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston musiqa madaniyati ko'p yillik tarixga ega bo'lib, uning hozirgi kundagi yo'nalishlari va janrlari kengayib bormoqda. Estrada san'atining asoschilari Botir Zokirov va Enmark Salihovlardir. Asosan, o'zbek radiosи va kinofilmlarda xalq kuylarini zamонавији asboblar bilan aranjirofka qilish ishlari olib borildi. 1960 -1980 yillarga kelib, estrada san'ati mustaqil bir janr sifatida shakillana boshladи. Bu yillarda Botir Zokirov, Farruh Zokirov, Ikrom Akbarov kabi kompozitorlar xalq kuylarini estrada talqinida kuylashga harakat qildilar. Yangidan - yangi guruqlar, solistlar sahnaga chiqdi: "Yalla", "Navo", "Bolalar", "Anor" kabi guruqlar o'z faoliyatini boshladи. [8.540]

Dastlab o'zbek estrada musiqasi o'zining milliy musiqa elementlari orqali ajralib turadi, biroq qo'shiqlarda rus, ukrain va boshqa xalqlar musiqasining ta'siri xam sezilarli darajada

edi. Mustaqillik yillaridan boshlab estrada san'ati kundan- kunga tobora rivojlanib, o'z muhlislari sonini ko'paytirib bormoqda. Hozirgi kunga kelib estrada san'atida yaratilayotgan musiqa na'munalari ko'plab tinglovchilarni o'ziga jalb etmoqda. Bugungi kundagi bayram tantanalari, radio va televedeniya orqali ijro etilayotgan zamonaviy estrada qo'shiqlari yoshlarni va turli yoshdagi millionlab san'at ihlosmandlarini ko'nglidan joy egallamoqda. Yangi musiqiy uslublar va janrlar paydo bo'ldi. Bular: pop, rok, rep kabi boshqa zamonaviy yo'nalishlardir.

San'at va adabiyot sohasida musiqiy asarlar va she'riyat o'rtasidagi bog'liqlik mavjud. Ayniqsa, qo'shiqchilar va shoirlar o'rtasidagi hamkorlik yillar davomida xalqning ruhiy dunyosini boyitib kelmoqda. Shoirlar tomonidan yozilgan she'rlar, qo'shiqchilarga ilhom bag'ishlaydi. Qo'shiqchilar esa bu she'rlarni ovoz, musiqa va ijro orqali jonlantirib xalq orasida tarqalishiga yordam beradi. Bunday hamkorlik nafaqat san'atkorlarning o'sishiga, balki milliy madaniyatning rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi. Ko'plab mashhur qo'shiqchilar o'z asarlarida Muhammad Yusuf, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabi shoirlarning she'rlaridan foydalanib, san'atkorlar tomonidan ijro etilib xalq qalbida chuqur iz qoldirgan. Shoир va qo'shiqchi o'rtasidagi hamkorlik san'atning rivojlanishida muhim ahamiyatni kasb etadi. Qo'shiqchilar ham shoirlarga yordam berishi mumkin. Yangi qo'shiqlar ostida yangi she'rlar ham tug'iladi, yangi mavzular ochib beriladi.

Eng quvonarlisi shundaki, bugungi kunlarda estrada qo'shiqlarida klassik shoirlarning satrlariga ham murojat qilinmoqda. Ayniqsa, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Boburning ga'zallaridan olingan baytlar zamonaviy musiqa bilan boyitilib yangicha uslubda ijro qilinmoqda.

Masalan, O'zbekiston xalq artisti Sherali Jo'rayev, Ozodbek Nazarbekov, Munojot Yo'lchiyeva, Yulduz Usmonova, Sevara Nazarxon kabi san'atkorlar o'z repertuarlarida klassik adabiyotga murojat qilganlar.

O'zbekistonga estrada yo'nalishi kirib kelgandan so'ng soha rivoji uchun ko'plab asarlar ijodkorlar tomonidan yozildi. Shoirlarning ko'plab she'r va g'azallari kuyga solinib xalq e'tiboriga havola qilindi. Asarları qo'shiq bo'lib tinglovchilarning qalbiga yetib borgan ana shunday ijodkorlardan biri Muhammad Yusufdir.

O'zining she'rlari bilan xalqning yuragidan joy olgan shoir Muhammad Yusuf 1954-yilning 26-aprelida Andijon viloyatida tavallud topgan. U nafaqat shoir, balki xalq yuragini tushunadigan, ifoda eta oladigan iste'dodli ijodkor edi. Muhammad Yusuf she'riyatining eng muhim jihat shundaki u asosan barcha she'rlarida xalqning dardini ochib bergani bois o'zbek xalqining yuragidan bugungi kunga qadar chuqur joy egallab kelmoqda. Uning ijodi asosan Vatanga muhabbat, ona tilini arqoqlash kabi mavzularni tasvirlaydi. Vatan haqida she'rlarida esa u nafaqat geografik hudud, balki har bir insonning onasi sifatida tasvirlaydi. Muhammad Yusufning ko'plab she'rlarini O'zbekistonda ko'plab san'atkorlar tomonida kuyga solinib xalqimiz orasida mashhur qo'shiqlarga aylangan. Quyidagi jadvalda ushbu san'atkorlar va ularning ijrosidagi Muhammad Yusuf she'rlari asosida yaratilgan ayrim qo'shiqlar keltirilgan.

Muhiddin Xoliqov	"Qizg'aldoqim ", "Yonimda qol", "Ketar bo'ldim", "Ay yuzingni bir ko'rmadim"
Yulduz Usmonova	"Biz sizni hech kimga bermaymiz O'zbekiston", "Ona".
Sherali Jo'rayev	"Ona tilim", "O'zbekiston", "Keldi bahor"

Munojot Yo‘lchiyeva	O‘zingdan ketma
Ozodbek Nazarbekov	“O‘zingdan ketma”, “Ko‘p yashagin O‘zbekistonim”, “Lola”
Shohruhxon	O‘zingdan ketma
Nilufar Usmonova	“Onam ”
Sevara Nazarxon	“Ulug‘imsan Vatanim”
Gulshanoy Jo‘rayeva	O‘zbek qizlari
Mahmudjon Azimov	Samarqand
Nuriddin Xaydarov	“Yur muhabbat”
Anvar Sanayev	“Jufti halolim”

Ushbu qo‘sishqlar orqali Muhammad Yusuf she’rlari keng ommaga yetib bordi, o‘zbek estrada san‘atida va sheriyatda o‘chmas iz qoldirdi.

Yulduz Usmonovaning **“Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston”** qo‘sishig‘i O‘zbekiston mustaqilligi yillarda yaratilgan va xalqimizning Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbatini ifoda etuvchi muhim asarlardan biridir. Ushbu qo‘sish matni O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf tomonidan yozilgan bo‘lib, unda Vatanga sadoqat va uni asrab-avaylash g‘oyalari aks etgan.

Qo‘sishq quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Oq yorgakka o‘ragansan o‘zing bizni,

Oq yuvib, oq taragansan o‘zing bizni.

Bu misralarda O‘zbekiston ona sifatida tasvirlanib, xalqini mehr bilan tarbiyalaganligi ta’kidlanadi. Keyingi satrlarda esa Vatanga bo‘lgan sadoqat va uni himoya qilishga tayyorlik ifodalanadi:

Adoying bo‘lgaymiz seni, O‘zbekiston,

Hech kimga bermaymiz seni, O‘zbekiston!

Bu yerda “adoying bo‘lgaymiz” iborasi xalqning Vatanga fidoyiligi va sadoqatini bildiradi. Qo‘sish davomida Alpomish kabi xalq qahramonlari tilga olinadi, ularning jasorati haqida misralar keltiriladi:

Qalqoning bor, kim qasd qilsa gar joningga,

Alpomishlar ruhi yor har o‘g‘loningga.

Ushbu qo‘sishq mustaqillik yillarda yaratilgan bo‘lib, tez orada xalq orasida mashhurlikka erishdi va asosiy bayramlarimiz madhiyasiga aylandi. Qo‘sishning matni va musiqasi uyg‘unligi, uning jo‘sinqin va ruhlantiruvchi ohangi tinglovchilarga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Qo‘sishning 4/4 o‘lchoviga mos keladi. Har 2 va 4 bo‘gindan keyin kuchli urg‘u tushadi. Bu holat marshga o‘xhash harakat uyg‘otadi. Ohang major tonalligini beradi - bu esa xursandchilik hisini beradi. Muhammad Yusufning “O‘zbekiston” she‘ri o‘zi ham vatanparlik ruhi bilna boyitilgan, ammo Yulduz Usmonovaning uni kuylashi ushbu asarni milliy timsollardan biriga aylantiradi. Agar boshqa san’atkor uni oddiyroq, hissiy kuchsiz tarzda kuylanganida u balkim she‘r sifatida qadrli bo‘lib qolgan bo‘lardi, lekin xalq orasida tarqalmagan bo‘lardi. Yulduz Usmonovaning jo‘sinqin ijrosi, kuchli vokali, she‘rni milliy ruhi bilan uyg‘unlashtirdi. Yulduz Usmonova nafaqat sahnaga chiqib ashula aytadi, balkim xalqga murojat qilishi bilan insonlarni o‘ziga jalb qiladi. Yulduz Usmonovaning bu ijrosidan she‘rdan ajoyib bir musiqaga aylangan. San‘atdan xalqning yuragiga aylangan aynan shuning uchun ham bu qo‘sishq hali- hanuz sahnalarda yangraydi, xalqning yuragida yashaydi.

Muhammad Yusuf she'rnii har bir zarbi, urg'u, intonatysiysiga e'tibor berganligi uchun bularning barchasi she'rga hayot, ovoz va ohang berdi.

Orkestrda qatnashgan cholg'ular yanada qo'shiqni milliy ohanglar bilan boyitadi. Orkestrda quyidagi cholg'ular qatnashadi: Orkestradagi cholg'ular o'zbek ohangiga hos bezak sifatida ishlatalilgan. (Qo'shiqni tinglash orqali uning chuqur ma'nosini yanada his qilish mumkin).

Shoirning yana bir she'ri Ulug'imsan Vatanim shoirning Vatanga bo'lган muhabbatini, faxrini va sadoqatini ifoda etgan she'rlaridab biridir. Muhammad Yusuf bu she'rda o'zini Vatanni bir bo'lagi deb hisoblaydi. U Vatan bilan birga nafas olayotganday, birga yashayotganday tuyuladi. She'rda g'urur, mehr, faxr va sadoqat kabi tuyg'ular ustuvor turadi. Shoir Vatan haqida gapirganda, u faqat yurtini emas, o'zining jonini, yuragini ovozini ifodalaydi. Muhammad Yusufning she'ri orqali Vatanga xizmat qilish, uni sevish-har bir insonning muqaddas burchi ekanligini so'zları orqali ifodalaydi

Barmoq vaznida:

Ulug'imsan, Vatanim

u-lu-g'im-san(4)+va-ta-nim (3)= 7 bo'g'in

Ko'ksimda baxtim, g'anim

ko'k-sim-da (3) + bax-tim (2) + g'a-nim(2)= 7 bo'g'in

Sen bilan bo'g'liq taqdirim

sen(1) + bi-lan(2) + bog' + liq(2) +taq-di-rim(3) = 8 bo'g'in

Sen bilan bo'g'liq nafasim

sen(1) + bi-lan(2) + bog' + liq(2) +na-fa-sim(3) = 8 bo'g'in

Aralash barmoq vaznida yozilgan 7 va 8 bo'g'inli she'r an'anaviy qat'iy bir vaznga asoslanmagan, lekin ritmik va ohangdorligi saqlanib qolgan. Sevara Nazarxonning ovozi tinch, ammo nozik intonatsiya orqali tinglovlchi she'r mazmuniga yanada e' tibor beradi. Ijro davomida milliy she'rga zamonaviy musiqa elementlari qo'shilgani bilan ajralib turadi. Sevara Nazarxon ijrosida davomida ritm va temp o'zgarishi seziladi. Aslida Muhammad Yusufning "Ulug'imsan Vatanim" she'ri xalqning yuragini zabit etgan vatanparvarlik timsoli bo'lган. Sevara Nazarxon ijrosida ushbu she'r musiqanining zamonaviy ohanglari orqali ifoda etilgan. Ijro davomida improvizatsiya elementlari ham sezilgan. (Ilova 2)

Xalqimizning boy madaniy merosida san'atkorlar va shoirlar o'rtasidagi ijodiy hamkorlik muhim o'rin egallagan. Shu hamkorlik orqali ko'plab unutilmas qo'shiqlar bastalangan. Bugungi kunga kelib bu an'ana asta-sekin yo'qolib ketmoqda. Zamonaviy san'atkorlarning aksariyat qismi badiiylikdan yiroq so'zlardan foydalanishi, shoirlar bilan hamkorlik qilmasliklari san'atning sayozlashuviga olib kelmoqda. Shunday ekan san'at va adabiyot o'rtasidagi aloqani tiklash, bugungi kun san'ati oldida turgan vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Umarov M- Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi- T. 2009.
2. O'zbek musiqasi tarixi- T. 1981.
3. Ibragimov O- O'zbek musiqa ijodi
4. Mannopov C." Navobaxsh ohanglar" T. 1996.
5. Wikipediya ma'lumotlari
6. O.Matyoqubov " Maqomot" "Musiqa nashiyoti" T. 2004.
7. Muhammad Yusuf "Sukunat tug'yonlari" T. 22-sون.
8. Oriental Renaissance: Innovatie, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor